



O'ZBEKISTONDA DAVLAT SOLIQ XIZMATI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING SAMARADORLIK DARAJASI TAHLILI

Quyliyev Ulug'bek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-4877-4328

kuyliyev11@rambler.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda davlat soliq xizmati faoliyatini raqamlashtirishning samaradorlik darajasini oshirish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, mavzuga doir olib borgan tadqiqotlari natijasi bo'yicha O'zbekiston soliq tizimida qo'llaniladigan axborot texnologiyalarni takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, mexanizm, soliq tizimi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, axborot tizimi, axborot texnologiyalari, "soliq hamkor".

АНАЛИЗ УРОВНЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НАЛОГОВОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Куйлиев Улугбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды отечественных и зарубежных учёных на вопросы повышения эффективности цифровизации государственной налоговой службы в Узбекистане. Также по результатам исследований по данной теме разработаны выводы и предложения по совершенствованию информационных технологий, используемых в налоговой системе Узбекистана.

Ключевые слова: налоги, механизм, налоговая система, налоговое администрирование, налоговый контроль, информационная система, информационные технологии, "налоговый партнер".

ANALYSIS OF THE LEVEL OF EFFECTIVENESS OF DIGITIZATION OF THE STATE TAX SERVICE IN UZBEKISTAN

Kuyliyev Ulugbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the views of local and foreign scholars on the issues of increasing the efficiency of digitization of the state tax service in Uzbekistan. Also, based on the results of their research on the topic, conclusions and proposals have been developed for improving information technologies used in the tax system of Uzbekistan.

Keywords: taxes, mechanism, tax system, tax administration, tax control, information system, information technology, "tax partner".

Kirish.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyot va davlat boshqaruvining deyarli barcha sohalariga katta ta'sir ko'rsatmoqda, soliq ma'muriyatchiligi ham bu jarayondan mustasno emas. Bugungi raqamli transformatsiya soliqlarni to'lash va boshqarishning yangi usullarini joriy etish bilan birga, ularni yig'ish, nazorat qilish va qayta ishlash jarayonlarini ham tubdan o'zgartirayotgan muhim omil hisoblanadi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi, chunki bu jarayon soliq tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq ma'lumotlarini to'plash, nazorat qilish va qayta ishlash tatbiq etilmoqda, bu esa jarayonlarni avtomatlashtirish va byurokratiya darajasini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Elektron xizmatlar soliq to'lovchilarga o'z ma'lumotlariga tez va qulay kirish imkoniyatini taqdim etish bilan bir qatorda, soliq organlariga soliq qonunchiligiga rioya etilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini modernizatsiya qilish orqali soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish maqsadida davlat soliq xizmati organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida o'zaro aloqani masofaviy shaklga o'tkazish, barcha ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni AKTlarini keng qo'llash orqali to'liq avtomatlashtirish va interaktiv davlat xizmatlari sonini kengaytirish, iqtisodiyotda xufyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirish hamda tadbirkorlik uchun teng raqobat muhitini yaratish maqsadida soliq organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda soliq nazorati tizimini soliq to'lovchilar faoliyatiga aralashishni, shuningdek, davlat soliq xizmati organlarida "inson omili"ni hamda korrupsiya holatlarni kamaytirish imkonini beruvchi masofaviy tahlil ishlari asosida tashkil etish kabi qator ustuvor vazifalar belgilandi.

Soliq organlari soliq ma'murchiligini raqamlashtirish bo'yicha katta yo'lni bosib o'tdi va bu borada oldinda hali ko'p vazifalarni qilishimiz lozim. Shu bilan birga, bugungi kunda soliq organlari jarayonlarni avtomatlashtirish hisobiga olingan ma'lumotlarni ochiq e'lon qilishga tayyor. Shu munosabat bilan Soliq qo'mitasi soliq organlari faoliyatiga doir ko'rsatkichlar bo'yicha axborotlarni muntazam e'lon qilib borish amaliyotini yo'lga qo'ymoqda. Eng asosiysi, ushbu ma'lumotlar har oyda davriy ravishda e'lon qilib boriladi hamda ular jamoatchilikka soliq ma'murchiligining strukturasi va dinamikasini ko'rish, ularning ijobiy va salbiy tendensiyalarini kuzatib borish imkonini beradi (Kudbiyev, 2022).

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan elektron xizmatlar, shu jumladan mobil ilovalar joriy etilgan. Soliq to'lovchilar bilan imkon qadar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali muloqot qilishni yo'lga qo'yish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'rsatilayotgan elektron davlat xizmatlarning soni 45 taga yetkazildi. Mazkur xizmatlar Soliq qo'mitasining "Elektron davlat xizmatlari – my.soliq.uz" portali orqali ko'rsatilmoqda. Shu bilan birga, portaldagi soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan 12 turdagi elektron hujjatlar hamda 27 turdagi hisobotlar yuborilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlariga asosan soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar sifatini oshirish bilan birga my.soliq.uz saytidan foydalanuvchilar soni 2024-yilda 4,8 mln taga yetkazilib, 2023-yilga nisbatan 1,8 mln taga yoki 1,6 baravarga ko'payishiga erishilgan. Foydalanuvchilarning my.soliq.uz saytidagi interaktiv xizmatlariga murojaatlar soni 2024-yil davomida 488,3 mln tani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 274,5 mln taga yoki 2,3 baravarga ko'paygan¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq ma'muriyatchiligining muammoli masalalari xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari iqtisodchi olimlar A.Vaxobov, M.Tuychiyev, Sh.Musalimov, U.Pardayev, F.Fayziyev, X.Nasrullayev, A.Nazarov, G.Safarov, Sh.To'rayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Biroq, raqamlashtirishning jadal rivojlanishi, uning davlat va jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borishi soliq tizimi uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda, shu munosabat bilan bunday sharoitda soliq ma'muriyatchiligi masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda (Кудбиев, 2022).

Mavzuga doir xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari o'rganilgan bolib, bunda olimlarning soliq to'vchilarga xizmat ko'rsatish haqidagi qarashlari xilma-xil bo'lishi mumkin va ularning tajribasi, tadqiqotlari va har bir alohida mamlakat imkoniyatlariga bog'liq.

Soliq tekshiruvlarini raqamlashtirish zaruriyati xususida fikr bildirgan olimlardan Gupta va boshqalar (2017) shunday deb ta'kidlaydi: "Raqamlashtirish soliq ma'muriyatlari faoliyatini o'zgartirib, jarayon samaradorligi va xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashga yordam beradi. Yorqin misol – firmalar va soliq organi o'rtasida hisob-kitob ma'lumotlarini avtomatik tarzda o'tkazish imkonini beruvchi elektron hisobvara-fakturaning (ye-invoysing) qabul qilinishi".

Barreix va Zambrano (2018) esa: "Soliqlarga rioya qilishni kuchaytirish va xarajatlarni kamaytirish potensialidan kelib chiqqan holda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlari, shu jumladan, Lotin Amerikasi va Karib dengizi mintaqasidagi o'nta mamlakatda elektron hisob-fakturani joriy qilgan". Isayev (2024) o'z tadqiqot ishida raqamlashtirishning soliq ma'murchiligidagi ahamiyatini o'rganib, uning samaradorligini quyidagicha izohlagan: "raqamlashtirish soliqlarni tahlil qilish va ular bo'yicha aniq xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, O'zbekiston davlat soliq xizmati faoliyatini raqamlashtirishning nazariy-huquqiy asoslari hamda metodologiyasi hisoblanadi. Tadqiqotda O'zbekiston soliq tizimida qo'llaniladigan axborot texnologiyalar mexanizmining amaldagi holati va metodologiyasining nazariy-huquqiy asoslari umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi va biznesning virtuallashuvi tufayli dunyo mamlakatlari uchun soliqlarni boshqarish tobora murakkablashib bormoqda. Bu holat elektron tranzaksiyalar hajmining oshishi hamda davlatlarning korxonalar aylanmasini nazorat qilish imkoniyatlari pasayishi bilan bog'liq (OECD, 2019).

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimiga soliq organlari tomonidan boshqariladigan soliqlar va boshqa to'lovlar summalar tushumlarini tezkor monitoring qilish maqsadida tahlil qilish va istiqbolni belgilash uchun soliq organlarining avtomatlashgan axborot tizimi tarkibida tahliliy komponentlarni rivojlantirish hamda statistik soliq hisobotlarini yig'ish, bunday hisobot ma'lumotlarini jamlash va agregatsiyalash, mamlakatimizning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va istiqbolni shakllantirish maqsadlari uchun soliq organlarining avtomatlashgan axborot tizimi tarkibida komponentlarni yaratish kerak. Shuningdek, soliq organlari tomonidan boshqariladigan daromadlarning tushumlarini o'rta muddatli va uzoq muddatli tizimli tahlil qilish, soliq bazasini o'zgartirish va ularning O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlariga adekvatligi, O'zbekiston Respublikasini soliq organlarining soliq ma'muriyatchiligini asosiy yo'nalishlari bo'yicha

faoliyati natijalarini tahlil qilish, ichki va tashqi foydalanuvchilarga ma'lumotnomalar, xabarnomalar uchun tegishli tahliliy axborot tayyorlash maqsadlari uchun soliq organlarining avtomatlashgan axborot tizimi tarkibida tahliliy komponentlarni yaratish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun katta salohiyatga ega. Olib borilayotgan islohotlar natijasida, shuningdek, soliq organlari ma'murchiligining integratsiyalashuvi raqamlashtirilishi munosabati bilan Soliq mobil ilovasidan foydalanuvchilar soni 2024-yilda 9,3 mln taga yetib, 2023-yilga nisbatan 72,2 foizga yoki 3,9 mln oshgan. 2024-yilda yo'nalishsiz taksi bo'yicha 497,9 ming nafar fuqarolar o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tkazilib, ularning faoliyati legallashtirilgan.

Integratsiya qilingan 155ta agregatorlarning ("Yadex Go", "Uklon UB", "My taxi", "GeoGo" va boshqalar) axborot tizmlari orqali yo'lovchilarga 5,9 trln so'mlik (319,1 mln ta) fiskal cheklar berilib (o'rtacha chek summasi -18456 so'm), agregatorlar tomonidan 156,8 mlrd so'm shundan, QQS 66,2 mlrd so'm soliqlar to'langan.

Elektron tovar-transport yuk xati tizimi 2024-yilning 1-apreldan yirik soliq to'lovchilar va 1-iyuldan esa barcha xo'jalik yurituvchilar uchun yo'lga qo'yildi. Tizim joriy qilingandan buyon 39433 ta korxonalar tomonidan jami 8057,1 minta elektron tovar-transport yuk xati rasmiylashtirilgan hamda 17,0 mingta (11,8 mingta yuridik shaxslar haydavchilari va 5,2 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlar) tashuvchilarni faoliyati legallashtirilishiga erishilgan. Elektron tijorat sohasini tartibga solish bo'yicha 159 ta ("Uzum market", "Olcha store", "Paynet" va boshqalar) marketpleyslar Soliq qo'mitasining axborot bazasi bilan integratsiya qilinishi natijasida 2024-yil boshidan 94,1 trln so'mlik 2009,4 mln ta fiskal cheklari berilishi ta'minlangan.

2024-yildan Soliq qo'mitasi soliq to'lovchilar uchun sun'iy intellekt bazasida yaratilgan virtual yordamchini ishga tushirdi. Soliq qo'mitasi soliq to'lovchilarga 24/7 rejimida ma'lumot berishga mo'ljallangan, DavrON deb nomlangan virtual yordamchini ishga tushirdi. U ai.soliq.uz (<https://ai.soliq.uz/>) manzilida joylashgan.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-q-fakturalar tovar aylanmasi 2 041,6 trln. so'm yoki 2023-yilga nisbatan 367,1 trln. so'mga (22 foiz) ortgan bo'lsa, QQS summasi 169,5 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 32,0 trln. so'mga (24 foiz) oshgan.

Ularda aks ettirilgan tovar aylanmasi 1 041,6 trln. so'm bo'lib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 367,1 trln. so'mga (22,0 foiz) ortgan bo'lsa, QQS summasi 169,5 trln. so'mni tashkil qilib, 32,0 trln. so'mga (23 foiz) oshgan bo'lsa, onlayn nazorat-kassa texnikalaridan foydalanuvchilar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 224 548 taga yetib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 13 022 taga (6 foiz) oshgan. Ular foydalanayotgan ONKTLar orqali taqdim etilgan cheklar soni 1 051,6 mln.ga yetib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 173,8 mln.ga (20 foiz) oshgan.

Rasmiylashtirilgan elektron ishonchnomalar soni 2024-yilda 1,3 mln. tani tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 101032 mingtaga (9%) oshdi. "E-IJARA" interaktiv xizmatida shartnoma summasi 2024-yil 3,3 trln. so'mni tashkil etib, 352 mingta shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilgan (shartnoma obyektlari 220 mingta). Shu jumladan, 116 ming ijara shartnomasi tuzilib, ijara beruvchilarga 63,3 mlrd. so'mlik (44,5 mlrd. so'm) soliq imtiyozlari berildi.

"Raqamli markirovka" tizimida ro'yxatdan o'tgan 3,5 ming ishtirokchi tomonidan 83,6 ming dona mahsulot turi "raqamli markirovka" katalogiga kiritilgan, shundan qariyb 7,4 mlrd. dona markirovkalangan tovarlar ishlab chiqariladi. 2024-yil mahsulot (tovar va xizmat) larning yagona elektron milliy katalogida (tasnif.soliq.uz) 466,9 mingdan ortiq mahsulotlarning har biriga ularni identifikatsiyalaydigan 17 xonali raqamdan iborat bo'lgan unikal kodlar birlashtirildi.

Qonunchilikda ko'zda tutilgandek, soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan o'zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishga o'tish soliq to'lovchining xoxishiga ko'ra, uning arizasi asosida amalga oshiriladi. Aks holda, soliq to'lovchi va davlat soliq xizmati organi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1-jadvalda 2020-2024-yillari deklaratsiya taqdim etgan fuqarolarga hisoblangan daromad solig'i bo'yicha solishtirma ma'lumotlar tahlili keltirilgan.

Xususan, 2020-yilda jami 491 284 nafar fuqarolar daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etishi aniqlangan bo'lsa shundan 266 652 nafar fuqarolar deklaratsiyani elektron shaklda taqdim etgan. Hisoblangan soliq summasi 264,5 mlrd. so'mni, undirilgan soliqlar summasi 232,7 mlrd.so'mni, soliq qarzdorlik summasi 220,6 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2021-yilda 523 109 nafar fuqarolar daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etishi aniqlangan bo'lsa shundan 294 022 nafar fuqarolar deklaratsiyani elektron shaklda taqdim etishgan bo'lsa, hisoblangan soliq summasi 281,4 mlrd. so'mni, undirilgan soliqlar summasi 248,9 mlrd.so'mni, soliq qarzdorlik summasi 234,9 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2022-yilda jami 565 105 nafar fuqarolar daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etishi aniqlangan bo'lsa shundan 271 979 nafar fuqarolar deklaratsiyani elektron shaklda taqdim etishgan. Hisoblangan soliq summasi 305,9 mlrd. so'mni, undirilgan soliqlar summasi 276,5 mlrd.so'mni, soliq qarzdorlik summasi 276,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

1-jadval

2023-2024-yillari deklaratsiya taqdim etgan fuqarolarga hisoblangan daromad solig'i bo'yicha solishtirma ma'lumotlar tahlili (mlrd.so'mda)

T/r	Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
I	Jami yillik daromadlari to'g'risida deklaratsiya taqdim etishi lozim bo'lgan fuqarolar soni	491 284	523 109	565 105	500 966	552 725
II	Deklaratsiya taqdim etgan fuqarolar soni	491 284	523 109	565 105	500 966	552 725
	<i>shu jumladan</i>					
	DSXOga tashrif buyurgan holda taqdim etganlar soni	224 632	229 087	293 126	25 949	0
	Elektron taqdim etilgan deklaratsiyalar soni	266 652	294 022	271 979	475 017	552 725
	Hisoblangan soliq	264,5	281,4	305,9	376,3	456,6
	Undirilgan soliq	232,7	248,9	276,5	446,9	542,3
	Soliq qarzdorligi	220,6	234,7	276,1	250,3	337,3
III	Mol-mulkini ijaraga berib daromad olayotgan fuqarolar soni	135 055	144 644	169 567	153 795	193 317
	<i>shu jumladan,</i>					
	Turar joylar	121 285	129 995	142 791	135 368	166 597
	Noturar joylar	13 770	14 649	17 740	17 286	26 411
	Hisoblangan soliq (ijara asosida)	132,7	141,5	164,3	151,8	175,1
	<i>shu jumladan,</i>					
	Turar joylar	118,6	126,3	141,9	138,1	143,0

	Noturar joylar	14,1	15,2	17,4	13,5	26,2
--	----------------	------	------	------	------	------

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O'zbekistonda o'zini-o'zi ish bilan band qilingan fuqarolar 2025-yil 1-yanvar holatiga soni 4,5 mln. nafarga yetib, 2024-yilning o'tgan davrida 2,5 mln. nafar shaxs ro'yxatdan o'tgan. 2024-yilning o'tgan davrida ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to'lagan holda mehnat staji hisobga olinishi imkoniyatidan 1,2 mln. nafar fuqaro foydalanib, ular tomonidan 231,4 mlrd.so'm soliq kelib tushgan. 2-jadvalda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning kunlik hisobga olinishi tahlilini keltirganmiz.

2-jadval

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning kunlik hisobga olinishi tahlili

01.08.2025-yil holatiga

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Jami hisobga olingan fuqarolar soni	Joriy yilda hisobga olingan fuqarolar soni	shundan:					
				Veb dastur orqali (my.gov.uz)	%	Mobil ilovada Face ID orqali	%	boshqa manbalar	%
Jami hisobga olinganlar		5 753 709	2 112 373	716 983	33,9	1 333 929	63,1	61 461	2,9
shundan,									
1	2025-yil iyun oyida hisobga olinganlar soni	jami	257 542	42 147	16,4	210 942	81,9	4 453	1,7
		o'rtacha bir kunda	8 585	1 405	16,4	7 031	81,9	148	1,7
2	2025-yil iyul oyida hisobga olinganlar soni	jami	281 773	48 592	17,2	228 169	81,0	5 012	1,8
		o'rtacha bir kunda	9 392	1 620	17,2	7 606	81,0	167	1,8

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak 2025-yil iyun oyida jami 257542 nafar fuqarolar o'zini o'zi band qilgan shaxslar hisobga olingan bo'lsa shundan 42147 nafari my.gov.uz veb dasturi orqali ro'yxatdan o'tgan bo'lsa 210942 nafari Face ID orqali mobil ilovasi orqali ro'yxatdan o'tgan, 4453 nafar fuqaro esa boshqa manbalar orqali o'zini o'zi band qilgan fuqarolar sifatida ro'yxatdan o'tganligini ko'rishimiz mumkin.

2025-yil iyul oyida jami 281773 nafar fuqarolar o'zini o'zi band qilgan shaxslar hisobga olingan bo'lsa shundan 48592 nafari my.gov.uz veb dasturi orqali ro'yxatdan o'tgan bo'lsa 228169 nafari Face ID orqali mobil ilovasi orqali ruyxatdan o'tgan, 5015 nafar fuqaro esa boshqa manbalar orqali o'zini o'zi band qilgan fuqarolar sifatida ro'yxatdan o'tgan.2025-yilning iyun oyida o'rtacha 8585 nafar fuqoro o'zini o'zi band qilgan fuqarolar sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa 2025-yilning iyul oyida bu ko'rsatgich 9392 nafarni tashkil etgan.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash belgilarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beruvchi ko'p tarmoqli tahlil qilish orqali adekvat nazoratni ta'minlash hamda soliq solish obektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'p tarmoqli tahlil qilish natijalari bo'yicha soliq organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar sifatini oshirish kerak deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasini soliq tizimi faoliyatining erishilgan samaradorlik ko'rsatkichlari, fuqarolar murojaatlari bo'yicha olib borilgan ishlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, boshqa tahliliy ma'lumotlarni oshkor qilish maqsadlari uchun soliq

organlarining avtomatlashgan axborot tizimi tarkibida tahliliy komponentlarni rivojlantirilsa quyidagi natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Xususan, soliq tushumlari monitoring qilish samaradorligini oshirishga;

- soliq ma'muriyatchiligining yuqoridagi tartibga solish tartib-tamoyillariga va ularni amalga oshirish muddatlariga kafolatlangan rioya etilishiga;

- O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va tashqi omillarni hisobga olgan holda soliq tushumlarini tahlil qilish va istiqbolni belgilash sifatini oshirishga;

- o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan soliq tushumlariga nisbatan tahliliy axborotlarni shakllantirish orqali strategik qarorlar qabul qilish sifatini oshirishga;

- soliq organlari faoliyatining ochiqqligini oshirishga hamda- fuqarolarning soliq organlariga ishonchini va buning natijasida soliq intizomini oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan raqamlashtirilgan tizimlarni joriy etilishi va samarali foydalanish yo'lga qo'yilishi natijasida iqtisodiy jarayonlarning barcha ishtirokchilari – tadbirkorlik subyektlari, davlat idoralari, byudjet va fuqarolar uchun foydali bo'lib, xarajatlarning qisqarishiga, zamonaviy boshqaruv usullari va axborot resurslaridan foydalangan holda nazorat jarayonlarini avtomatlashtirishga, iste'mol narxlarini statistikasini takomillashtirishga, soliq bazasini kengaytirish va soliq yig'iluvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda davlat soliq xizmati faoliyatini raqamlashtirishning samaradorlik darajasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

Yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish zarur sababi mamlakatimiz iqtisodiyotda yashirin aylanma darajasini qisqartirish va qonuniy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkon beradi.

Soliq to'lovchilarning ma'lumotlarini tahlil qilish va xavflarni baholash uchun sun'iy intellekt va mashinali o'qitish algoritmlarini qo'llash hamda soliq to'lovchilar faoliyatini masofadan turib kuzatib borish uchun virtual nazorat tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Soliq organlari va soliq to'lovchilari o'rtasidagi munosabatlar mexanizmlarini samarali vositalarga asosan, jumladan servis xizmati va elektron muloqotga asoslangan mexanizmga ko'ra optimallashtirish lozim.

Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish maqsadida 2024-yil 1-iyuldan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi subektlar uchun tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va ularning hisobini yuritish tizimini majburiy tartibda joriy etish kerak deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Barreix, Alberto D. and Raul Zambrano. eds. (2018). *Electronic Invoicing in Latin America*. Inter-American Development Bank. doi: <http://dx.doi.org/10.18235/0001038>

Kudbiyev Sh.D. (2022) "Davlat soliq xizmati organlari faoliyati endi yanada shaffof!". 01.12.2022 y. <https://yuz.uz/news/sherzod-kudbiyev-davlat-soliq-xizmati-organlari-faoliyati-endi-yanada-shaffof>

OECD (2019). "Tax Administration 2019: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies." Hisoboti.

Sanjeev Gupta, Michael Keen, Alpa Shah, and Genevieve Verdier (2017) "Digital Revolutions in Public Finance" Chapter 2. "Digitalization and Taxation". International Monetary Fund. 26-27.

Кудбиев Ш.: (2022) «Давлат солиқ хизмати органлари фаолияти энди янада шаффоф!» 01.12.2022 й.